

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida  
UDK:338.486(575.1)**

**G‘OFUROV AZIZBEK UMARJONOVICH**

**SOG‘LOMLASHTIRISH TURIZMI XIZMATLARI FAOLIYATINI  
BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.17- Turizm va mehmonxona faoliyati  
08.00.13 – Menejment**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan  
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy maslahatchi: i.f.d., professor. Mirzayev A.T.**

**Toshkent shahri – 2025-yil**

## MUNDARIJA

|                                                                                                                                                           |            |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>KIRISH.....</b>                                                                                                                                        | <b>3</b>   |
| <b>1-BOB. SOG‘LOMLASHTIRISH TURIZMI FAOLIYATI RIVOJLANISHINING NAZARIY-USLUBIY JIHATLARI .....</b>                                                        | <b>17</b>  |
| 1.1. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlarining diversifikatsiyalashuvi.....                                  | 17         |
| 1.2. Sog‘lomashtirish turizmining rivojlanish bosqichlari va faoliyatni boshqarish uslubiyotidagi o‘zgarishlar.....                                       | 38         |
| 1.3. Sog‘lomashtirish turizmi faoliyati chegaralarini tizimli tahlil asosida aniqlash uslubiyotlari .....                                                 | 51         |
| Birinchi bob bo‘yicha xulosalar .....                                                                                                                     | 69         |
| <b>2-BOB. O‘ZBEKISTONDA SOG‘LOMLASHTIRISH TURIZMI XIZMATLARI FAOLIYATINI BOSHQARISHGA METODOLOGIK YONDASHUVLAR.....</b>                                   | <b>72</b>  |
| 2.1. Sog‘lomashtirish turizmi xizmatlari faoliyatini boshqarish evolyutsiyasiga konseptual yondashuvlar .....                                             | 72         |
| 2.2. Turizm xizmatlari bozorida sog‘lomashtirish turizmi faoliyatini boshqarish jarayonlari rivojlanishining uslubiy jihatlari.....                       | 84         |
| 2.3. Sog‘lomashtirish turizm faoliyatini boshqarish metodologiyasi rivojlanishida ilg‘or xorijiy tajribalar va modellardan foydalanish qamrovi ..         | 99         |
| Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar .....                                                                                                                     | 111        |
| <b>3-BOB. O‘ZBEKISTONDA SOG‘LOMLASHTIRISH TURIZMI FAOLIYATINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BOSHQARISH JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH.....</b>           | <b>114</b> |
| 3.1. Sog‘lomashtirish turizmi xizmatlari bozorining rivojlanish holati va faoliyat tarkibiy tuzilmalarining multiplikativ samarasi tahlili.....           | 114        |
| 3.2. Sog‘lomashtirish turizmi faoliyatini boshqarishda sohalar resurs komponentlarini integrativ samarasini baholash.....                                 | 126        |
| 3.3. Sog‘lomashtirish turizmi xizmatlari faoliyatining boshqaruv samaradorligiga omillar ta’sirini baholashda tahlil uslubiyotlarining qo‘llanilishi..... | 141        |
| Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar.....                                                                                                                      | 156        |
| <b>4-BOB. SOG‘LOMLASHTIRISH TURIZMI XIZMATLARI FAOLIYATINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI VA STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH .....</b>                          | <b>159</b> |
| 4.1. Sog‘lomashtirish turizmi faoliyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish istiqbollari.....                                                   | 148        |
| 4.2. Sog‘lomashtirish turizmi xizmatlari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini boshqaruv axborot tizimlari vositasida takomillashtirish ...    | 173        |
| 4.3. Sog‘lomashtirish turizmi faoliyati rivojlanishining tarmoq dasturlari asosida sohaning boshqaruv strategiyasini takomillashtirish.....               | 186        |
| To‘rtinchi bob bo‘yicha xulosalar .....                                                                                                                   | 202        |
| <b>Xulosa va takliflar .....</b>                                                                                                                          | <b>205</b> |
| <b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati .....</b>                                                                                                           | <b>210</b> |
| <b>Ilovalar.....</b>                                                                                                                                      | <b>223</b> |

## KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti turizm sohasini rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga egaligi hamda soha milliy daromad shakllanishidagi asosiy manbalardan biriga aylanib borayotganligini ko'rsatmoqda. Insonlarning salomatligi bilan bog'liq omillar sog'lomlashtirish turizmi faoliyatini kengaytirish hamda uni boshqarish jarayonlarini takomillashtirish orqali iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Butunjahon turizm tashkiloti (BTT) ma'lumotlari bo'yicha "2023-yilda sayohat va turizmning global yalpi ichki mahsulotga (YAIM) qo'shgan umumiy hissasi 2019-yilga nisbatan, COVID-19 pandemiyasidan bir yil oldin, taxminan to'rt foizga past edi. Umuman olganda, sayohat va turizmning jahon YAIMga qo'shgan hissasi 2023-yilda 9,9 trillion AQSh dollarini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024-yilda pandemiyadan oldingi darajadan oshib taxminan 11,1 trillion AQSh dollariga, 2034-yilda esa 16 trillionga yetishi taxmin qilinmoqda"<sup>1</sup>. Shuning uchun jahon iqtisodiyotini rivojlantirishda sog'lomlashtirish turizmi faoliyati istiqbolda ustuvorlikka ega bo'ldi, bu esa sohada boshqaruv bilan bog'liq metodologiyani takomillashtirishni talab etadi.

Jahonda insonlarning turizm tarkibiy tuzilmalari bo'yicha real talabdan kelib chiqib turizm bozoridagi yo'qotishlarni sog'lomlashtirish turizmi faoliyatini rivojlantirish orqali kamaytirish, soha faoliyatiga kiritilayotgan innovatsion va investitsion jozibadorlikni oshirish hamda soha faoliyatida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jihatdan sog'lomlashtirish turizmi faoliyatiga ixtisoslashgan korxonalarda integratsiyalashgan boshqaruv tuzilmalarini kengaytirish, xizmatlardan foydalanishni raqamli tizimlar asosida qulaylashtirish, turistik-rekreatsiya resurs bazasiga ega mamlakatlarda sog'lomlashtirish turizmi faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

---

<sup>1</sup><https://www.statista.com/statistics/233223/travel-and-tourism-total-economic-contribution-worldwide/#:~:text=In%202023%2C%20the%20total%20contribution,trillion%20U.S.%20dollars%20in%202023.>

O‘zbekistonda turizm sohasini jadal rivojlantirish borasida istiqbolga mo‘ljallangan maqsadli vazifa va ustuvor yo‘nalishlarda turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me‘yor va standartlarni joriy etish, sog‘lomlashtirish turizmi faoliyatiga tadbirkorlik subyektlarini keng qamrovli jalb etish va ularga iqtisodiy dastaklarni yanada kengaytirish, sohaga davlat xususiy sherikchilik mexanizmini keng joriy qilish va klasterli yondashuv asosida boshqarish metodologiyalarini takomillashtirish o‘z aksini topmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida “Xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo‘yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish, xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga respublikada 30 ta yirik turizm klasterlarini tashkil etish, mehmon o‘rinlari sonini kamida 2 barobarga oshirish, tog‘li hududlarda 25 ta dor yo‘llari qurish, turizm mahallalari sonini 175 taga yetkazish hamda turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish, tibbiyot va ta’lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard dollarga yetkazish”<sup>2</sup> vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda turizm sohasi tuzilmalari faoliyatini rejali va dasturli rivojlantirish, sohaga investitsiyalarni keng jalb etish asosida innovatsion tashkiliy-iqtisodiy va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2022-yil 30-apreldagi PQ-232-son “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2023-yil 27-iyuldagi PQ-

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.

238-son “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2024-yil 12-yanvardagi PF-20-son “O‘zbekiston Respublikasida to‘siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi<sup>3</sup>.** Sog‘lomlashtirish turizmi xizmatlari faoliyatini rivojlantirish va boshqarishning metodologik jihatlarini takomillashtirish, sohani rivojlanish strategiyalarini shakllantirish, tizim boshqaruvini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Murray State University, [University of UtahParks](#), [Stockton University](#), [University of North Carolina \(AQSh\)](#), [University of Surrey \(Buyuk Britaniya\)](#), [Universidad de Las Palmas de Gran Canaria \(Ispaniya\)](#), [University of Munster \(Germaniya\)](#), Free University of Bozen-Bolzano (Fransiya), Osaka University of Tourism (Yaponiya), Yasar University (Turkiya), University of Applied Sciences of the Grisons (Shvetsariya), Rossiya davlat turizm va servis universiteti (Rossiya), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Buxoro davlat

---

<sup>3</sup>Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi Florida International University, New York University, University of South Carolina - Beaufort (AQSH), Teesside University, University of Lincoln (Buyuk Britaniya), University Carlos III of Madrid, Universidad de Las Palmas de Gran Canaria (Ispaniya), University of Munster (Germaniya), Korea Development Institute (Janubiy Koreya), Tailors University (Malayziya), Yasar University (Turkiya), University of Pannonia (Vengriya), University of Applied Sciences of the Grisons (Shvetsariya), Institut Paul Bocuse, Ecole hôtelière de Lausanne (EHL) (Fransiya), M.B.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiti (Rossiya), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Ipak Yo‘li” xalqaro turizm universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti veb-sahifalari va boshqa manbalar asosida yoritilgan.

universiteti, Urganch davlat universiteti, Namangan davlat universiteti, Farg‘ona davlat universiteti, Qo‘qon universiteti (O‘zbekiston Respublikasi)da olib borilmoqda.

Jahonda sog‘lomlashtirish turizmi faoliyatini boshqarishga oid amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda quyidagi ilmiy natijalar olingan: sog‘lomlashtirish turizm xizmatlari faoliyatini qisqa muddatli reja asosida yuqori samaradorlikka erishish mexanizmlari ishlab chiqilgan, (Murray State University, University of UtahParks, Stockton University, University of North Carolina (AQSh); sog‘lomlashtirish turizm faoliyatiga kiritilgan investitsion va innovatsion loyihalar bilan mamlakatning iqtisodiy o‘shish sur‘atlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni modellashtirish va prognozlashtirish asosida sohaning o‘rta va uzoq muddat uchun taraqqiyot strategiyalari ishlab chiqilgan (Osaka University of Tourism – Yaponiya); sog‘lomlashtirish turizmi klasterlarini shakllantirishda davlat-xususiy sherikchilik mexanizmini joriy etish orqali sohaning investitsion jozibadorligini oshirishga erishilgan (Rossiya davlat turizm va servis universiteti – Rossiya), sog‘lomlashtirish turizmi faoliyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bilan iqtisodiy samaradorlik ortgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – O‘zbekiston).

Sog‘lomlashtirish turizmi xizmatlari faoliyatini boshqarish metodologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha jahonda quyidagi yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: sohadagi mavjud resurs komponentlarni integral baholash, faoliyatni samarali boshqarishga raqamli texnologiyalarni joriy etish, sohani rivojlantirishda investitsion va innovatsion loyihalar tahlili asosida baholash, sohada davlat xususiy sherikchilik mexanizmini qo‘llash va klasterli yondashuv asosida boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish va hokazo.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Turizm va uning tarkibidagi sog‘lomlashtirish turizmi faoliyatini rivojlantirish va faoliyatni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish borasida xorijiy davlatlarda bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, xorijiy olimlardan É.Csirmaz, K.Peto, H.Sharma, H.Chandola, G.Singh, G.Basisht, H.Nahrstedt, S.Hajioff, K.Rayan,

Ch.Gii, J.Makens, D.Chey, G.Xarris, R.Kats, S.Akis, A.Atiyaman, M.Meskon, M.Albert kabi olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi<sup>4</sup>. Ushbu olimlarning tadqiqotlarida sog‘lomlashtirish turizmi faoliyati rivojlanishi, faoliyatni boshqarish jarayonlari rivojlanishining nazariy jihatlarini hamda undan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmlari muayyan darajada nazariy va uslubiy jihatdan o‘rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) davlatlarida sog‘lomlashtirish turizmi faoliyati va uning boshqarish jarayonlarini rivojlantirishning nazariy hamda uslubiy jihatlarini N.V.Penkina, M.A.Jukova, E.S.Bogomolova, V.S.Preobrajenskiy, A.M.Vetitnev, R.M.Navodnichiy, A.A.Fedyakin, V.F.Kazakov, A.S.Kuskov, V.A.Nabedrik, M.M.Pokolodna, M.A.Morozov, E.Shtuchnaya, O.E.Bashina, A.V.Zavrajin, M.V.Karmanov, I.P.Kovaleva, E.Y.Kakabadze, Y.N.Fedotov, I.E.Vostokov kabi olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan<sup>5</sup>. Ushbu tadqiqotlarda

---

<sup>4</sup> Csirmaz É. and Peto K. (2015), “International trends in recreational and wellness tourism”, *Procedia Economics and Finance*, Vol. 32, pp. 755-762.; Hari Sharma, H.M. Chandola, Gurdip Singh and Gopal Basisht. *Utilization of Ayurveda in Health Care: An Approach for Prevention, Health Promotion, and Treatment of Disease. Part 2. – Ayurveda in Primary Health Care / The Journal of Alternative and Complementary Medicine*. Vol. 13, No. 10. <https://doi.org/10.1089/acm.2007.7017-B>; Nahrstedt H. *Die Kurorten Medizin und Vorteile*. – Bern, 1997. – P.197.; Hajioff Steve. *Health Tourism: 100 years of living science [электронный ресурс]* // Imperial College, London, November 2007. Available on: <http://www1.imperial.ac.uk/resources/4042628D-B846-4531-BB7D-0F8293266C76> (дата обращения: 04.04.2013).; Chris Ryan. *Recreational Tourism: Demand and Impacts* / Channel View Publications, 2003. – 358 p.; Gee Ch. Y., Makens J.C., Chey, D. *The Travel Industry*. 3d. Wdit. -New York John Wiley Sons Inc. 2003. – 250 p.; Харрис Г., Кац Р. *Становление международного туризма в XXI веке*. М.: Финансы и статистика, 2006.; Akis.S.(1998): *Acompact Econometric Model of Tourism Demand for Turkey*, Tourism.; Athiyaman, A. (1997): *Knowledge Development in Tourism: Tourism Demand Reserch, Tourism Management*; Мескон М., Альберт М. др. *Основы менеджмента*, –М.: Дело, 1997. – С. 56.

<sup>5</sup> Пенкина Н.В. *Туристско-рекреационный комплекс: теоретико-методологические подходы к анализу: Учебно-методическое пособие* / Н.В. Пенкина. – Нижневартовск: Изд-во Нижневарт. гос. ун-та, 2017. – С.7-10.; Жукова М.А. *Менеджмент в туристском бизнесе: учебное пособие* / М.А. Жукова. – 2-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2006. – С. 11.; Богомоллова Е.С. *Теоретико-методологические основы управления развитием туристско-рекреационного комплекса региона*. Дис. д-ра.экон.наук. – Майкоп, 2008. – 346 с.; Преображенский В.С. *Теоретические основы рекреационной географии* / Ред. В.С. Преображенский - М.: Наука, 1975. – 260 с.; Ветитнев А.М. *Лечебно-оздоровительный туризм: вопросы терминологии и типологии* / А.М. Ветитнев, А.В.Дзюбина, А.А.Торгашева // *Вестник Сочинского государственного университета туризма и курортного дела*.- 2012.- № 2 (20). – С. 51.; Наводничий Р.М. *Управление развитием сферы лечебно-оздоровительных услуг в России: автореф. дисс. ... канд. экономич. наук: 08.00.05* / Р.М. Наводничий.- Москва, 2011. – 26 с.; Федякин А.А. *Теоретико-методические основы оздоровительного туризма: Дисс. докт.мед. наук* / А.А. Федякин. – Майкоп, 2001. – 279 с.; Казаков В.Ф. *Опыт организации лечебного туризма в санатории средней полосы России* / В.Ф.Казаков // *Курортные ведомости*. –2002. –№2. –С.10-12.; Кусков А.С. *Курортология и оздоровительный туризм* / А.С. Кусков, О.В. Лысикова. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2004. – С. 284.; Набедрик В.А. *География лечебного туризма в Европе: модели развития и трансформационные процессы: автореф. дисс. ...канд.геогр.наук: 25.00.24./ В.А. Набедрик. – Москва, 2005. – С. 8.; Поколотна М. М. Рекреация география: навч. посібник / М.М.Поколотна; Харк. нац. акад. міськ. госп-ва. – Харків: ХНАМГ, 2012. – С 38.; Морозов М.А. *Оздоровительный туризм в России: особенности и перспективы развития* / М.А. Морозов, Т.В. Львова // *Вестник Российского государственного торгово-экономического университета*. –2011. – № 12 (60). – С. 93.; Штучная Е. Б. *Теория и методика спортивно-оздоровительного туризма. Учебное пособие* / Е.Б. Штучная. – Омск: 2005. – С. 12. Башина О.Э., Завражин А.В., Карманов М.В. *Оздоровительный туризм: особенности**

olimlar tomonidan sog'lomlashtirish turizm faoliyatini boshqarish jihatlari tadqiq etilgan hamda soha rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni baholashga e'tibor qaratilgan.

O'zbekistonda turizm sohasini, jumladan, turizmning turli tarmoqlarini rivojlantirish va boshqarish jarayonlari mamlakatimizda M.Sharifxo'jayev, Q.X.Abdurahmonov, M.K.Pardayev, A.A.Eshtayev, I.S.Tuxlyiev, N.Q.Yo'ldoshev, N.T.Tuxlyiev, B.N.Navruzzoda, O.H.Hamidov, M.T.Aliyeva, M.T.Alimova, B.Sh.Safarov, A.F.Saidov, A.N.Norchayev, U.Matyakubov, G.A.Alimova, A.T.Mirzayev, Z.I.Usmanova, Z.T.Abdulxakimov kabi olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan<sup>6</sup>.

---

управления и прикладного анализа: Монография. – М.: Изд-во МЭСИ, 2014. – 194 с.; Ковалева И.П. Мировые тенденции развития медицинского туризма // Развитие экономики и менеджмента в современном мире. – 2014. – С. 67-70.; Какабадзе Э.Ю. Формирование системы государственного управления в сфере медицинского и лечебно-оздоровительного туризма. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Санкт – Петербург – 2020.; Федотов Ю.Н., Востоков И.Е. Спортивно-оздоровительный туризм. М., 2004. 463 с.

<sup>6</sup> Sharifxo'jayev M., Abdullayev Y. Menejment: Darslik. – Toshkent, "O'qituvchi", 2001 y. –75-77-bb.; Абдурахмонов К.Х. Менежмент туризма: Учебное пособие. - Т.: Филиал ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В. Плеханова» в г. Ташкенте, 2013.; Pardayev M.Q., Atabayev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. – Samarqand: SamISI, 2006. - 137 b.; A.A.Eshtayev. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi. (O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'i misolida) iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – S.: SamISI, 2019. – 246-6.; Boltabayev M.P, Tuxliyev I.C. Turizm: nazariya va amaliyot. –T.: «Fan va texnologiya», 2018, - 400 b.; N.K.Yo'ldoshev, G.E.Zaxidov. Menejment: o'quv qo'llanma. –T.: O'zbekiston milliy faylasuflari jamiyati, 2018. – 392 b.; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма. - Т.: Гос.науч.изд-во «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2006. - 424 с.; Наврузода Б.Н., Ибрагимов Н.С., Navruz-zoda Z.B., Navruz-zoda Sh.B.Turistik hudud raqobatbardoshligi. Monografiya. – Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2017 - 156 b.; Хамидов О.Х. Выбор конкурентной стратегии предприятия на рынке туристических услуг Узбекистана: Дисс...канд. экон. наук. – С.: СамИСИ, 2006. -155 с.; Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari (O'zbekiston Respublikasi misolida). Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. –Samarqand: SamISI, 2019. –287 b.; Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida).: iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – S.: SamISI, 2017. - 265 b.; B.Sh. Safarov. Milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – S.: SamISI, 2016. - 254 b.; Саидов А.Ф. Организационно-экономические механизмы управления туризмом Республики Узбекистан: Дисс... док. экон. Наук – Т., 1994. - 252 s.; Norchayev A.N. Xalqaro turizm rivojlanishining iqtisodiy o'sishga ta'siri (Ispaniya misolida): iqt.fan.nomz. diss. – Т., 2004. - 136 b.; U.R.Matyakubov. "Orolbo'yi mintaqasida turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy va metodologik yo'nalishlarini takomillashtirish". iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - U.: Urganch, 2022. - 268 b.; Алимова Г.А. Методологические основы активизации военной рекреации как фактора обеспечения социально-экономической стабильности. Дисс...канд. экон. наук. – Т.: ТДИУ, 2024. -228 с.; Mirzayev A.T. O'zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc.) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.: TDIU. 2021. – 254-b.; Usmanova Z.I. O'zbekistonda turistik–rekreatsion xizmatlarni rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) disssertatsiyasi avtoreferati. – S.: SamISI, 2018. - 56 b.; Abdulxakimov Z.T. Mintaqada rekreatsiyadan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish (namangan viloyati misolida): iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) disssertatsiyasi avtoreferati. – S.: SamISI, 2020. - 59 b.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan olimlar turizm sohasini rivojlantirish va faoliyatni boshqarish jarayonlarini takomillashtirish, sohani innovatsion va investitsion usulda rivojlantirish bo'yicha ilmiy-nazariy tadqiqotlarni amalga oshirib turistik faoliyatni boshqarish jarayonlarini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shganlar. Biroq ular tomonidan sog'lomlashtirish turizmi faoliyatini samarali boshqarish, soha faoliyatini hududlar kesimida rivojlantirish, turizm tarmoqlari va boshqa tarmoqlarning multiplikativ samarasi kabi masalalar yetarli darajada o'rganilmagan. Sog'lomlashtirish turizmi bo'yicha yuqori salohiyatga ega hududlarida ushbu tuzilmani ustuvor tarmoq sifatida rivojlantirish va faoliyatning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tadqiq etish, soha korxonalari boshqaruviga ta'sir etuvchi omillarni kompleks baholash asosida boshqaruv samaradorligini oshirish, hududlar kesimida sog'lomlashtirish xizmatlari va uning infratuzilmasini tadqiq etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universitining ITD-3 raqamli "Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash sharoitida korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishni tadqiq etish, boshqarishning samarador uslub va texnologiyalarini yaratish hamda takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** sog'lomlashtirish turizmi xizmatlari faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari, turistik xizmat turlarining diversifikatsiyalashuvi, rivojlanish bosqichlari va faoliyatni boshqarish uslubiyotidagi o'zgarishlarni ilmiy tadqiq etish;

sog'lomlashtirish turizmi faoliyati chegaralarini tizimli tahlil asosida aniqlash uslubiyotlarini nazariy jihatdan tadqiq etish;

sogʻlomlashtirish turizmi xizmatlari faoliyatini boshqarish evolyutsiyasiga konseptual yondashuvlar va rivojlanishning metodologik jihatlari boʻyicha takliflar ishlab chiqish;

sogʻlomlashtirish turizmi xizmatlari bozorining rivojlanish holati va faoliyat tarkibiy tuzilmalarining multiplikativ samarasini tahlil qilish;

sogʻlomlashtirish turizmi faoliyatini boshqarishda sohalar resurs komponentlarini integrativ samarasini va faoliyatning boshqaruv samaradorligiga omillar taʼsirini baholash;

sogʻlomlashtirish faoliyati xizmatlaridan olingan daromadlar hajmi va uning shakllanishiga taʼsir etuvchi asosiy koʻrsatkichlarning 2012-2023-yillar davomidagi oʻzgarish tendensiyalari tahlilini amalga oshirish va prognozlashtirish;

sogʻlomlashtirish turizmi faoliyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish;

sogʻlomlashtirish turizmi xizmatlari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini boshqaruv axborot tizimlari vositasida takomillashtirish;

sogʻlomlashtirish turizmi faoliyati rivojlanishining tarmoq dasturlari asosida sohaning boshqaruv strategiyasini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida sogʻlomlashtirish turizmi sohasida faoliyat koʻrsatayotgan tashkilotlar faoliyati va uni boshqarish jarayonlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** boʻlib sogʻlomlashtirish turizm xizmatlari faoliyatini boshqarish jarayonlari bilan bogʻliq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, taqqoslash, induksiya va deduksiya, statistik tahlil, tizimli tahlil, anketa soʻrovlari oʻtkazish va tahlil etish, ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga koʻra “sogʻlomlashtirish turizmi xizmatlari” tushunchasining iqtisodiy mazmuni mazkur faoliyatni tasniflash, tibbiy va sogʻlomlashtirish turizmi konsentratsiyasi sogʻlomlashtirish va terapevtik turizmning tasniflash xususiyatlarining tavsifi, turistik faoliyat turlarini

tipologiyalash va turistik yoʻnalishlarning oʻziga xos xususiyatlari asosida takomillashtirilgan;

boshqaruvning tizimli tahlil qilish metodologiyasidan foydalangan holda tibbiy sogʻlomlashtirish ( $TC = 0,38$ ), profilaktik-sogʻlomlashtirish ( $IIC = 0,41$ ) va rekreatsion dam olish ( $PJO = 0,21$ ) xizmatlarini dekompozitsiyalash asosida sogʻlomlashtirish turizmi chegaralari aniqlangan;

tibbiy, rekreatsion va sport turizmi faoliyatini integratsiyalash asosida sogʻlomlashtirish turizmi xizmatlari faoliyatining innovatsion boshqaruv samaradorligini taʼminlovchi markaz tuzilmasi asoslangan;

sogʻlomlashtirish turizmi faoliyatini boshqarish mexanizmi hududiy sogʻlomlashtirish turizmi faoliyatini samarali boshqarish metodologiyasiga muvofiq subyekt (davlat hokimiyati, sogʻlomlashtirish tashkilotlari va turistik infratuzilmalar) hamda obyekt (turistik bozor, turistik resurslar va diqqatga sazovor joylar)ni tipologiyalash asosida takomillashtirilgan;

Fargʻona viloyatidagi “Chimyon” va Namangan viloyatidagi “Nihol” sanatoriyalaridagi kiritilgan resurslar, boshqaruv samaradorligi va unga taʼsir koʻrsatuvchi omillar oʻrtasidagi bogʻliqlikning koʻp omilli ekonometrik modeli asosida sogʻlomlashtirish faoliyati xizmatlaridan olingan daromadlar hajmining 2028-yilga qadar prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

sogʻlomlashtirish turizmi faoliyatidagi tashkiliy-iqtisodiy hamda boshqaruv jarayonlaridagi oʻziga xos oʻzgarishlar asosida sogʻlomlashtirish turizmi va uning elementlarining rivojlanishi davrlashtirildi;

hududiy sogʻliqni saqlash, sogʻlomlashtirish va sayyohlik majmuasini boshqarish uchun strategik rejalashtirish algoritmining asosiy bosqichlari mazmunining strategik matritsasi ishlab chiqildi va amaliyotda foydalanish yoʻllari koʻrsatib berildi;

hududlardagi sogʻlomlashtirish turizmi faoliyatining innovatsion tizim elementi salohiyatining integral koeffitsiyentini hisoblash metodologiyasi tavsiya qilindi;

turizm sohasi rivojlanishidagi o'zgarishlar hamda ushbu rivojlanishdagi asosiy resurs bazasi hisoblangan sog'lomlashtirish turizm xizmatlari holati va ulardan foydalanish darajasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarning o'zgarish holati asosida sohadagi o'zgarish tendensiyalari baholandi;

Farg'ona viloyati tumanlarining sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirish salohiyati ko'rsatkichlarini aniqlash uchun sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirishning tabiiy, tematik, tarixiy, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy resurslarining turistik jozibadorligini baholash matritsasi ishlab chiqildi;

hududiy menejment darajasida sog'liqni saqlash va sog'lomlashtirish xizmatlari sohasini rivojlantirish bo'yicha strategik muvofiqlashtiruvchi markaz tarkibi asoslandi va amaliyotda foydalanish uchun tavsiya qilindi;

O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi xizmatlari faoliyatini axborot tizimlari vositasida rivojlantirishning davlat siyosatini ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi taklif etildi;

sog'lomlashtirish turizmi sohasidagi boshqaruv strategiyalarini takomillashtiruvchi markaz tuzilmasining matematik modeli ishlab chiqildi va amaliyotda foydalanish yo'llari dalillandi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi axborotlar bazasining rasmiy manbalaridan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari hamda tadqiqot ishida amaliy korxona sifatida tanlab olingan "Chimyon" va "Nihol" sanatoriyalari manbalaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning amalda sinovdan o'tkazilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan ma'qullanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqotda ishlab chiqilgan nazariy va metodologik asoslar iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turistik-rekreatsiya xizmatlari sohasini boshqarishni va respublikamizda turizm industriyasining samarali faoliyat olib

borishiga, milliy turizm mahsulotining jahon bozorida raqobatbardoshligini boshqaruv strategiyalari asosida ta'minlashga qaratilganligi, shuningdek, mamlakatimiz turistik xizmatlari sohasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishda, shuningdek, turizm xizmatlari bo'yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqish va tahlil qilishda foydalanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi faoliyatida, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining turizm bilan bog'liq bo'lgan sohalarida, hududlardagi turistik-rekreatsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va ularning birlashma (klaster va majmua)lari faoliyatini takomillashtirishga doir tadbirlarni ishlab chiqishda, turistik-rekreatsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda, qisqa va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish strategiyalarni ishlab chiqishda, oliy o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan mutaxassislariga "Turizm menejmenti", "Turizm iqtisodiyoti va menejmenti", "Turizm infratuzilmasi" kabi fanlardan o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlashda ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Sog'lomlashtirish turizmi xizmatlari faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "sog'lomlashtirish turizmi xizmatlari" tushunchasining iqtisodiy mazmuni mazkur faoliyatni tasniflash, tibbiy va sog'lomlashtirish turizmi konsentratsiyasi sog'lomlashtirish va terapevtik turizmning tasniflash xususiyatlarining tavsifi, turistik faoliyat turlarini tipologiyalash va turistik yo'nalishlarning o'ziga xos xususiyatlari asosida takomillashtirish bo'yicha taklifdan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Turizm: nazariya va amaliyot" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 55-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan. 2024-yil 4-mart №55140 B. 360). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda

sogʻlomlashtirish turizmi xizmatlarining iqtisodiy mazmuni boʻyicha nazariy bilimlarni kengaytirish hamda amaliyotda qoʻllash boʻyicha koʻnikmalarni shakllantirish imkoni yaratilgan;

boshqaruvning tizimli tahlil qilish metodologiyasidan foydalangan holda tibbiy sogʻlomlashtirish ( $TC = 0,38$ ), profilaktik-sogʻlomlashtirish ( $IIC = 0,41$ ) va rekreatsion dam olish ( $PDO = 0,21$ ) xizmatlarini dekompozitsiyalash asosida sogʻlomlashtirish turizmi chegaralari aniqlash boʻyicha taklif Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qoʻmitasi faoliyatiga joriy qilingan (Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qoʻmitasining 2024-yil 4-noyabrdagi 03-12-17-7646-sonli maʼlumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida dekompozitsiyalangan tarkibiy qismlarni umumlashtirgan holda sogʻlomlashtirish turizmi faoliyatining asosiy chegaralarini aniqlash aniqligi 8-12 %ga ortgan;

tibbiy, rekreatsion va sport turizmi faoliyatini integratsiyalash asosida sogʻlomlashtirish turizmi xizmatlari faoliyatining innovatsion boshqaruv samaradorligini taʼminlovchi markaz tuzilmasi asoslash boʻyicha taklif Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qoʻmitasi faoliyatiga joriy qilingan (Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qoʻmitasining 2024-yil 4-noyabrdagi 03-12-17-7646-sonli maʼlumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etilishi natijasida tizimli xarakterga ega boʻlgan va mamlakat, hududiy, mahalliy va tarmoq darajalarida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni oʻz ichiga olgan boshqaruv mexanizmining samaradorligi ortgan;

sogʻlomlashtirish turizmi faoliyatini boshqarish mexanizmi hududiy sogʻlomlashtirish turizmi faoliyatini samarali boshqarish metodologiyasiga muvofiq subyekt (davlat hokimiyati, sogʻlomlashtirish tashkilotlari va turistik infratuzilmalar) hamda obyekt (turistik bozor, turistik resurslar va diqqatga sazovor joylar)ni tipologiyalash asosida takomillashtirish taklifi Oʻzbekiston Respublikasi

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil 4-noyabrdagi 03-12-17-7646-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida yuqori sog'lomlashtirish obyektlari salohiyatiga ega hududlarida qisqa va o'rta muddatli rivojlanish dasturlarini amalga oshirish ssenariylarini ishlab chiqish aniqligi 8-12% ga ortgan;

Farg'ona viloyatidagi "Chimyon" va Namangan viloyatidagi "Nihol" sanatoriyalaridagi kiritilgan resurslar, boshqaruv samaradorligi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikning ko'p omilli ekonometrik modeli asosida sog'lomlashtirish faoliyati xizmatlaridan olingan daromadlar hajmining 2028-yilga qadar prognoz qiymatlari O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil 4-noyabrdagi 03-12-17-7646-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida faoliyati tahlil qilingan har ikkala korxonada ko'p omilli bog'lanishlar asosidagi tahlillar negizida ko'rsatilgan sog'lomlashtirish turizmi xizmatlari hajmini hamda korxonalar faoliyatini boshqarish samaradorligini oshirgan holda korxonalarni rivojlantirish strategiyalarini shakllantirish aniqligi 9-11 %ga ortgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobat siyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta (shu jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika) ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta monografiya, 1 ta darslik, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola nashr qilingan. Ularning 8 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Uning umumiy hajmi 218 betni tashkil etadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari**

- 1.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2022-y.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining “Turizm to'g'risida” gi qonuni, 26-iyul, 2019-y.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to'g'risida”gi qonuni.-T.: 1998-yil, 2-dekabr.
- 1.4. Chet el investitsiyalari to'g'risida O'zbekiston Respublikasining qonuni // Xalq so'zi, 1998-yil 20-may.
- 1.5. Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida O'zbekiston Respublikasining qonuni// Xalq so'zi, 1998-yil 21-may.
- 1.6. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi 1998- yil 30 apreldagi № 609-I-sonli qonuni.
- 1.7. O'zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi” qonuni. –T.:2000-yil 25-may.
- 1.8. O'zbekiston Respublikasining “Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida”gi qonuni.-T.:1996-yil 25-aprel.

### **II. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlar**

- 2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “ O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida”gi farmoni \ lex.uz.
- 2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-dekabrda “Chorvoq” erkin turistik zonasini tashkil etish to'g'risidagi PF-5273-sonli farmoni.”Xalq so'zi” gazetasi 2017-yil 6-dekabr, № 245 (6939).
- 2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi “2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3217-son qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 33-son, 845-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018-y., 06/18/5483/1594-son.
- 2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida” gi PF-5326-sonli farmoni.
- 2.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-fevraldagi “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3509-son qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.02.2018 y., 07/18/3509/0658-son.

2.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3510-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.02.2018-y., 07/18/3510/0668-son.

2.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7-fevraldagi Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3514-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.02.2018-y., 07/18/3514/0672-son; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018-y., 06/18/5483/1594-son.

2.7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019-yil 5 yanvardagi PF-5611-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2019-2025yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi” (3-bob, 4-yo‘nalish). Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.01.2019-y., 06/18/5611/2430-son, 15.08.2019-y., 06/19/5781/3567-son, 20.09.2019-y., 06/19/5833/3774-son.

2.8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-dekabrdagi “Ekoturizmni rivojlantirish va suv omborlarining suvni muhofaza qilish zonalarini doirasida er uchastkalari ajratish tartibini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 978-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.12.2018 y., 09/18/978/2270-son.

2.9.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 137-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 11-son, 165-modda, 23-son, 478-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2017 y., 09/17/810/0095, 07.11.2017-y., 09/17/894/0219-son; 01.06.2018 y., 09/18/398/1288-son, 08.08.2018 y., 09/18/631/1638-son.

2.10.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Turizm faoliyatini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 137-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017- y., 14-son, 231-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.06.2018 y., 09/18/398/1288-son, 03.10.2018-y., 09/18/781/1984-son, 30.10.2018-y., 09/18/884/2128-son.

2.11.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat qo‘mitasining moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 356-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 23-son, 478-modda.

2.12.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 30-iyundagi “2017-2019-yillarda Samarqand shahri va Samarqand viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 450-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 27-son, 616-modda, 37-son, 996-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.03.2018 y., 09/18/197/0892-son, 24.05.2018 y., 09/18/384/1266-son.

2.13.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-sentyabrdagi “Xorijiy ommaviy axborot vositalari va turizm sohasi tashkilotlari vakillari uchun O‘zbekistonda axborot turlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 747-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 38-son, 1056-modda.

### **III.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, ma’ruzalari**

3.1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU. 2016.- 56 b.

3.2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016-yil 7-dekabr / Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent “O‘zbekiston” NMIU. 2017.- 48 b.

3.3. Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, kat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak». Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 4 yanvar. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. - 104 b.

3.4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.- Toshkent “O‘zbekiston” NMIU. 2017. - 488 b.

3.5 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2017-yil. 22 dekabr.

3.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyovning Oliy Majlisga murojaatnomasi. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2018-yil. 28-dekabr.

### **IV. Asosiy adabiyotlar**

4.1. Adilova Z.D., Aliyeva M.T., Norchayev A.N., Xursandov K.M. Turizm menejmenti: O‘quv qo‘llanma. -T.: TDIU, 2011. -116 b.

4.2. Akis S. A. Compact Econometric Model of Tourism Demand for Turkey, Tourism. (1998).

- 4.3. Athiyaman A. (1997): Knowledge Development in Tourism: Tourism Demand Reserch, Tourism Management.
- 4.4. Bertalanffy, Ludwig Von. (1968). General System Theory: Foundations, Development, Applications. New York: George Braziller.
- 4.5. Gee Ch. Y., Makens J.C., Chey, D. The Travel Industry. 3d. edit. -New York John Wiley Sons Ine. 2003. -250 r.
- 4.6. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. –T.: “Moliya”, 2003. –80-b.
- 4.7. Chris Ryan. Recreational Tourism: Demand and Impacts / Channel View Publications, 2003. – 358 p.
- 4.8. Deming W. E. Out of the Crisis. Cambridge, MA: Massachusetts Institute of Technology, Center for Advanced Engineering Study, 1986. P. 6.
- 4.9. Juran J. M. Quality Planning and Analysis. N. Y.: McGraw-Hill, 1970.
- 4.10. Kiseleva I.A., Tramova A.M., Bayasgalan Tsetsgee. Analysis of the competitiveness of the tourist industry enterprises with the application of model of business excellence. – IFOCT-2013 (8 International Forum on Strategic Tecnology-2013), Mongolia, Ulan Bator, 2013, pp. 802.
- 4.11. Lundberg D., Krishnamurthy M. – Tourism Economics. New York: John Wiley Sons Ine. 2003. -210 r.
- 4.12. Mamatov B.S., Xujamkulov D.Yu., Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 327-bet.
- 4.13. Porter, M. 1990. The competitive advantage of nations. New York: The Free press, 270 p.
- 4.14. Porter, M. 2001. Competition Moscow: Publishing House “Williams, 495 p. P. 207.
